

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li
Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tijorat banklarida kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, garov ta'minoti cheklovlarini yumshatish, kafolat mexanizmlarini kengaytirish, kreditlash jarayoniga konsalting xizmatlarini integratsiya qilish hamda yashil va investitsion kredit mahsulotlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. "O'zmilliybank" AJ amaliyotidagi "Ekspress", "Biznes ipoteka" va "Light Green" kredit mahsulotlari natijalari tahlil qilinib, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi tajribasi bilan qiyoslangan. Korrelyatsion tahlil asosida mikrokreditlar, xizmat ko'rsatish va servis sohasi, tadbirkor ayollar hamda aholi tadbirkorligini moliyalashtirish bilan umumiy KO'B kreditlash hajmi o'rtasidagi bog'liqlik baholangan, ko'p omilli regressiya orqali esa ayrim omillarning statistik ahamiyati aniqlangan. Yakunda kredit mahsuloti – kafolat – konsalting – kuzatuv elementlarini birlashtiruvchi "4K" kompleks mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tijorat banklari, bank krediti, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit mahsuloti, kafolat, garov, biznes ipoteka, yashil kredit, mikrokredit.

Аннотация: В статье исследованы приоритетные направления совершенствования механизма финансовой поддержки субъектов малого бизнеса посредством банковского кредитования. Рассмотрены вопросы диверсификации кредитных продуктов коммерческих банков, смягчения ограничений залогового обеспечения, расширения гарантийных механизмов, интеграции консультационного сопровождения в кредитный процесс, а также развития зеленых и инвестиционных кредитных продуктов. Проанализированы результаты применения кредитных продуктов «Экспресс», «Бизнес ипотека» и «Light Green» в практике АО «Узناцбанк» и проведено их сопоставление с опытом Республики Корея и Европейского союза. На основе корреляционного анализа оценено влияние микрокредитования, кредитов сфере услуг и сервиса, а также финансирования женского предпринимательства на общий объем кредитования. Предложен комплексный механизм, объединяющий кредитный продукт, гарантию, консалтинг и мониторинг.

Ключевые слова: малый бизнес, коммерческие банки, банковский кредит, финансовая поддержка, кредитный продукт, гарантия, залог, бизнес-ипотека, зеленый кредит, микрокредит.

Abstract: The article examines priority directions for improving the mechanism of financial support for small businesses through bank lending. It considers diversification of commercial bank credit products, mitigation of collateral constraints, expansion of guarantee mechanisms, integration of advisory support into the lending process, and development of green and investment credit products. The results of the Express, Business Mortgage and Light Green products used in the practice of JSC National Bank of Uzbekistan are analyzed and compared with approaches used in the Republic of Korea and the European Union. Correlation results are used to assess the relationship between total SME lending and microcredit, service-sector lending, and financing for women entrepreneurs. A comprehensive mechanism integrating credit products, guarantees, consulting and monitoring is proposed.

Keywords: small business, commercial banks, bank credit, financial support, credit product, guarantee, collateral, business mortgage, green credit, microcredit.



KIRISH

Kichik biznesni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda bank krediti muhim o'rin tutadi. Biroq kreditlash mexanizmining samaradorligi faqat kredit hajmini oshirish bilan belgilanmaydi. Kreditning qiymati va muddati, garov talablari, qaror qabul qilish tezligi, tadbirkorning investitsion salohiyatini baholash, kafolat va konsalting xizmatlarining mavjudligi ham kreditdan foydalanish natijasiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy bank amaliyotida kredit resurslari narxini optimallashtirish, ortiqcha garov talablarini kamaytirish, muqobil scoring va raqamli kreditlash vositalaridan foydalanish hamda riskni kafolat mexanizmlari orqali taqsimlash muhim yo'nalish hisoblanadi. Kichik biznesni bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlashda "ko'proq kredit" yondashuvidan "mos kredit mahsuloti + riskni bo'lishish + maslahat + monitoring" tamoyiliga o'tishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan maqolaning maqsadi bank kreditlari orqali kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmining amaliy muammolarini aniqlash va kredit mahsulotlari, kafolatlar hamda postkredit xizmatlarini yagona tizimga birlashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda kichik biznesni moliyalashtirish, banklarning KO'B bilan ishlash texnologiyalari, kreditga layoqatlilikni baholash, axborot nomutanosibligini kamaytirish va kredit kafolatlari tizimini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, T. Beck, A. de la Torre, M.S. Martínez Pería, S.L. Schmukler, N. Yamori, J. Abor va N. Biekpe tadqiqotlarida KO'Bni bank orqali moliyalashtirishning institutsional va amaliy jihatlari yoritilgan.

Xorijiy tajribada esa kreditni alohida bank mahsuloti sifatida emas, balki kafolat, texnologik ekspertiza, subsidiyalash va maslahat xizmatlari bilan bog'langan ekotizim sifatida tashkil etish ustunlik qiladi. Janubiy Koreyada KODIT va KOTEC orqali garov yetishmovchiligi muammosini yumshatish, texnologik salohiyatga asoslangan kafolatlash va ixtisoslashgan banklar orqali KO'Bni moliyalashtirish amaliyoti mavjud.¹

Yevropa Ittifoqida KfW, Bpifrance, Fondo di Garanzia per le PMI, ICO va BGK kabi milliy institutlar uzoq muddatli resurslar, davlat kafolatlari, eksport va innovatsiya kreditlarini taklif qiladi. EIF, EIF va InvestEU esa kredit, kafolat va kapital instrumentlarini birlashtiradi. Bu tajriba kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda bank krediti bilan bir qatorda riskni taqsimlash va nomoliyaviy xizmatlar ham muhim ekanini ko'rsatadi.²

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham KO'B kreditlashini faqat an'anaviy garovga asoslangan yondashuv bilan cheklamaslik zarurligi ta'kidlanadi. T. Beck KO'Bni moliyalashtirishda axborot nomutanosibligi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiruvchi maxsus kredit texnologiyalarining rolini, A. de la Torre, M.S. Martínez Pería va S.L. Schmukler esa banklarning KO'B bilan ishlashida scoring, mahsulot differensiasiyasi va keng xizmatlar paketining ahamiyatini asoslaydi. N. Yamori kichik biznes uchun kredit kafolatlari tizimining moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirishdagi rolini ko'rsatadi. Mazkur yondashuvlar maqolada taklif etilayotgan kafolat, segmentlangan kredit mahsuloti va konsaltingni birlashtirish g'oyasining nazariy asosini kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlashtirish, mantiqiy umumlashtirish, korrelyatsion tahlil hamda ko'p omilli chiziqli regressiya usullaridan foydalanildi. Empirik bazani O'zbekiston tijorat banklari, xususan "O'zmilliybank" AJ amaliyotidagi kredit mahsulotlari va KO'Bni moliyalashtirishga doir statistik qatorlar tashkil etdi. Ekonometrik hisob-kitoblar Stata dasturida bajarilgan bo'lib, regressiya modeli 66 ta kuzatuvga asoslangan. Modelning umumiy statistik ahamiyatligi F-test va Prob>F, izohlash darajasi R², alohida koeffitsiyentlar esa p-qiymatlar asosida baholangan. Vaqt qatorlarining xususiyatlarini tekshirishda ADF, DF-GLS va KPSS testlari, multikollinearlikni nazorat qilishda VIF testi, shuningdek avtokorrelyatsiya, geteroskedastiklik va qoldiqlar normalligi bo'yicha diagnostik tekshiruvlar qo'llanilgan. Korrelyatsiya koeffitsiyentlari bog'liqlikning yo'nalishi va kuchini, regressiya koeffitsiyentlari esa boshqa omillar nazorat qilinganda alohida omillarning statistik ta'sirini talqin qilish uchun ishlatilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank kreditlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish, avvalo, kredit mahsulotlarini tadbirkorning real pul oqimi va investitsion ehtiyojiga moslashtirishni talab qiladi. "O'zmilliybank" AJning kichik biznes yo'nalishidagi kredit mahsulotlari, investitsion va yashil moliyalashtirish amaliyoti segmentlangan kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi (1-jadval).

1 Korea Credit Guarantee Fund (KODIT). Credit Guarantee and Start-up Support Programs. <https://www.kodit.co.kr/>

2 KfW. ERP-Förderkredit KMU; European Investment Fund (EIF). InvestEU Guarantee Products. <https://www.kfw.de/> ; <https://www.eif.org/flagship-initiatives/investeu/guarantees>



1-jadval

Bank kreditlari orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yechimlar³

Yo'nalish	Mexanizm	Amaliy natija / kutilayotgan natija
"Ekspress" krediti	Tadbirkorlik subyektlari uchun tezkor innovatsion kredit mahsuloti	2025-yil IV chorakda 25 mijozga 44,5 mlrd so'm; yillik 11,1 mlrd so'mdan ortiq foizli daromad
Differensial stavka	Asosiy hisobvarag'i boshqa bankda bo'lsa amaldagi stavkaga 2 foiz punkt qo'shish	Kredit mahsulotlari taklifi kengayishi va bank daromadining o'rtacha 40–50 mlrd so'mga ortishi
"Biznes ipoteka"	Noturar ko'chmas mulk xaridida boshlang'ich to'lovga proporsional kreditlash	2026–2027-yillarda 500 mlrd so'mdan ortiq kredit va yillik 120 mlrd so'mdan ortiq daromad rejalashtirilgan
"Light Green"	Quyosh panellari va inventar ishlab chiqaruvchilarga aylanma mablag' krediti	4 006 mijozga 453,5 mlrd so'm; shundan 218 tadbirkorga 337,5 mlrd so'm; yillik daromad +109 mlrd so'm

Jadvaldagi natijalar kredit mahsulotini tadbirkor segmentining aniq ehtiyojiga moslashtirish bank va mijoz manfaatlarini bir vaqtda uyg'unlashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. "Ekspress" kreditida asosiy ustunlik tezkorlik bo'lsa, "Biznes ipoteka" investitsion aktivni sotib olishni moliyalashtirishga, "Light Green" esa yashil ishlab chiqarishning aylanma mablag' ehtiyojiga yo'naltirilgan. Shu sababli universal kredit mahsulotidan ko'ra maqsad, pul oqimi va risk profiliga mos segmentlangan kredit liniyalari samaraliroq hisoblanadi (1-jadvalga qarang).

Kreditlashning ikkinchi muhim yo'nalishi garovga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytirishdir. Janubiy Koreya tajribasida KODIT va KOTEC tadbirkorning biznes-rejasi, istiqboli va texnologik salohiyatini baholab, bank oldida kafolat berishi qayd etilgan. Bunda texnologik loyiha bugungi moliyaviy ko'rsatkichlari yetarlicha yuqori bo'lmagan taqdirda ham kelajakdagi iqtisodiy salohiyat asosida moliyalashtirish imkoniga ega bo'ladi (2-jadval).⁴

2-jadval

Xorijiy tajriba asosida bank kreditlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari⁵

Tajriba	Asosiy instrument	O'zbekiston bank amaliyoti uchun moslashtirish
Janubiy Koreya - KODIT/KOTEC	Kredit va texnologik kafolat, istiqbolni ekspert baholash	Garovi yetarli bo'lmagan, lekin pul oqimi va texnologik salohiyati yuqori bizneslar uchun kafolatli kredit
Germaniya - KfW	Banklar orqali uzoq muddatli resurs va foiz subsidiyasi	Investitsion va energiya samaradorligi loyihalariga uzoq muddatli resurs liniyasi
Fransiya - Bpifrance	Kafolat, eksport va innovatsiya moliyasi	Eksportchi va innovatsion kichik biznes uchun kredit+kafolat paketi
Niderlandiya - Qredits	Mikrokredit + trening + mentorlik + raqamli skoring	Mikrobiznes uchun kredit bilan majburiy/opsional konsalting va raqamli monitoring
EI -EIF/InvestEU	Riskni bo'lishish, kafolat va kapital instrumentlari	Bank-kafolat instituti hamkorligida portfel kafolati va risk sharing

O'zbekistonda kichik biznes kreditlashini takomillashtirishda kafolatni faqat kreditning qaytmaslik riskini qoplovchi vosita sifatida emas, balki bankning garov talabi va kredit narxini pasaytiruvchi risk-sharing instrumenti sifatida ko'rish maqsadga muvofiq. Bunda kafolat miqdori qarz oluvchining risk darajasi, loyiha innovatsionligi, ish o'rni yaratish salohiyati va ekologik samaradorligi bilan differensiallashtirilishi mumkin.

Empirik natijalar kredit hajmini shakllantirishda ayrim yo'nalishlarning roli bir xil emasligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kichik va o'rta tadbirkorlikni kreditlash bo'yicha statistik qatorlari asosida amalga oshirilgan muallif hisob-kitoblari ko'ra, umumiy KO'B kreditlari hajmi mikrokreditlar bilan $r=0,764$, xizmat ko'rsatish va servis sohasi kreditlari bilan $r=0,755$, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash kreditlari bilan $r=0,552$ va aholining tadbirkorlik kreditlari bilan $r=0,351$ darajada ijobiy bog'langan. Xorijiy kredit liniyalari bilan esa zaif manfiy bog'liqlik $r=-0,128$ qayd etilgan (3-jadvalga qarang).

3 Manba: "O'zmilliybank" AJning kichik biznes kredit mahsulotlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlari hamda muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan. <https://nbu.uz/>

4 Korea Credit Guarantee Fund (KODIT). Credit Guarantee Programs. <https://www.kodit.co.kr/>

5 Manba: KODIT, KfW, European Investment Fund (EIF) va Qredits rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



3-jadval

KO'B kreditlari umumiy hajmi bilan ayrim moliyalashtirish yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlik⁶

Omil	Korrelyatsiya (r)	Talqin
Ajratilgan mikrokreditlar	0,764	Kuchli ijobiy bog'liqlik
Xizmat ko'rsatish va servis sohasi kreditlari	0,755	Kuchli ijobiy bog'liqlik
Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash kreditlari	0,552	O'rta ijobiy bog'liqlik
Aholiga tadbirkorlik faoliyati uchun kreditlar	0,351	Ijobiy, nisbatan zaif bog'liqlik
Xorijiy kredit liniyalari	-0,128	Zaif manfiy bog'liqlik

Korrelyatsiya natijalari sabab-oqibat munosabatini o'z-o'zidan isbotlamaydi, biroq kredit siyosatida qaysi segmentlarning umumiy kreditlash dinamikasi bilan yaqinroq harakatlanishini ko'rsatadi. Shu bois mikrokredit, xizmat ko'rsatish va ayollar tadbirkorligi segmentlarida mahsulot dizayni, tezkor skoring va kafolat mexanizmlarini chuqurlashtirish kredit resurslarini samarali taqsimlashning ustuvor yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Korrelyatsion tahlilni chuqurlashtirish maqsadida ko'p omilli regressiya modeli natijalari ham baholandi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,738$ bo'lib, tanlangan omillar natijaviy ko'rsatkich variatsiyasining 73,8 foizini izohlashini ko'rsatadi. F-test qiymati 33,809 va $\text{Prob}>F=0,000$ bo'lgani modelning umumiy statistik ahamiyatligini tasdiqlaydi. Kuzatuvlar soni 66 tani tashkil etgan (4-jadval).

4-jadval

KO'B kreditlari hajmiga ta'sir etuvchi omillarning ko'p omilli regressiya natijalari⁷

Omil	Koeffitsiyent	Standart xato	p-qiymat	Statistik talqin
Ajratilgan mikrokreditlar	1,343	0,370	0,001	1% darajada ahamiyatli, ijobiy
Oilaviy tadbirkorlik dasturlari kreditlari	-2,837	1,101	0,012	5% darajada ahamiyatli, manfiy
Aholiga tadbirkorlik faoliyati uchun kreditlar	2,766	1,272	0,034	5% darajada ahamiyatli, ijobiy
Xizmat ko'rsatish va servis sohasi kreditlari	0,623	0,239	0,011	5% darajada ahamiyatli, ijobiy
Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash kreditlari	0,512	0,338	0,035	5% darajada ahamiyatli, ijobiy

Regressiya natijalariga ko'ra, mikrokreditlar koeffitsiyenti 1,343 ($p=0,001$) bo'lib, ushbu yo'nalishning umumiy KO'B kreditlash hajmi bilan statistik jihatdan eng barqaror ijobiy bog'liqligini ko'rsatadi. Aholiga tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar (2,766; $p=0,034$) hamda xizmat ko'rsatish va servis sohasiga yo'naltirilgan kreditlar (0,623; $p=0,011$) ham ijobiy va statistik ahamiyatli natija bergan. Shu sababli kredit siyosatida mikrokredit, xizmatlar va aholi tadbirkorligi segmentlarini maqsadli mahsulotlar, tezkor skoring va kafolat mexanizmlari orqali rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

TAKOMILLASHTIRILGAN MEXANIZM BO'YICHA TAKLIFLAR

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashning "4K" - "Kredit mahsuloti - Kafolat - Konsalting - Kuzatuv" kompleks mexanizmini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Taklif etilgan yondashuvda kredit mahsulotini mijoz ehtiyojiga segmentlash, kredit riskini kafolat orqali taqsimlash, kreditga tayyorgarlik sifatini konsalting orqali oshirish va postkredit monitoringni tranzaksiyon ma'lumotlar asosida tashkil etish yagona uzluksiz jarayonga birlashtiriladi. Shu jihati bilan mexanizm kredit ajratishning alohida instrumentlarini emas, kreditga talab paydo bo'lishidan uning to'liq qaytarilishigacha bo'lgan qiymat zanjirini boshqarishga qaratilgan.

Tahlil natijalariga asosanib, kichik biznesni bank kreditlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashning "4K" kompleks mexanizmi taklif etiladi: Kredit mahsuloti - Kafolat - Konsalting - Kuzatuv. Ushbu yondashuv kredit ajratishning alohida bosqichlarini emas, kreditga talab paydo bo'lishidan boshlab uning to'liq qaytarilishigacha bo'lgan jarayonni yagona tizim sifatida tashkil etishga qaratiladi (5-jadval).

6 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari. <https://cbu.uz/uz/statistics/>

7 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik qatorlari asosida Stata dasturida bajarilgan muallif hisob-kitoblari. <https://cbu.uz/uz/statistics/>



Element	Mazmuni	Bank uchun natija	Kichik biznes uchun natija
Kredit mahsuloti	Aylanma mablag', investitsiya, ipoteka, yashil va ekspress mahsulotlarni segmentlash	Portfel diversifikatsiyasi va foiz daromadi	Ehtiyojga mos muddat, summa va to'lov grafigi
Kafolat	Risk darajasiga qarab qisman kafolat va portfel kafolati	Kredit riskining bir qismini taqsimlash	Garov yetishmovchiligi cheklovini yumshatish
Konsalting	Biznes-reja, pul oqimi, soliq va moliyaviy boshqaruv bo'yicha ko'mak	Sifatli kredit arizalari va axborot shaffofligi	Loyiha va moliyaviy boshqaruv sifatining oshishi
Kuzatuv	Tranzaksiya va pul oqimlari asosida postkredit monitoring	Erta ogohlantirish va muammoli kredit xavfini pasaytirish	Muammo yuzaga kelganda erta restrukturizatsiya va maslahat

Taklif etilayotgan mexanizmning asosiy farqi kredit berish jarayonini faqat qarz oluvchining joriy moliyaviy ko'rsatkichlari va garovi bilan cheklamasligidadir. Kredit mahsuloti mijoz segmentiga moslashtiriladi; yetarli garov bo'lmaganda kafolat mexanizmi riskning bir qismini qoplaydi; biznes-reja va pul oqimi sifati konsalting orqali yaxshilanadi; kredit ajratilgandan keyin esa tranzaksion monitoring orqali risk erta aniqlanadi. Bu yondashuv Janubiy Koreyadagi kafolat va texnologik ekspertiza hamda Yevropadagi kredit+trening+mentorlik paketlarining mahalliy bank amaliyotiga moslashtirilgan shaklidir. Amaliyotdagi xatarlar sifatida qarzni qaytarish intizomidagi muammolar, garov ta'minotining yetishmasligi va biznes-rejalarning mukammal ishlab chiqilmagani ko'rsatilgan. Ularni kamaytirish uchun risk-menejment, raqamli skoring va KO'B uchun konsalting-ko'mak tizimini kuchaytirish taklif etiladi.

Shu sababli “4K” mexanizmini amaliyotga joriy etishda bank ichida kichik biznes kreditlarini boshqarish xizmatini shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur xizmat kredit arizasini tayyorlashdan boshlab biznes-rejani baholash, kafolat instrumentini tanlash, kredit mahsulotini moslashtirish va kredit qaytarilgunga qadar monitoringni muvofiqlashtiradi. Rivojlangan davlatlar tajribasida biznes-rejadan kreditning so'ndirilishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oluvchi xizmatlar paketi qo'llanilishi qayd etilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil kichik biznesni bank kreditlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish kredit hajmini mexanik ravishda oshirishdan ko'ra, kredit mahsulotining maqsadlilik, riskni taqsimlash va mijozni kreditdan keyingi qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatdi. Ko'p omilli regressiya modelida $R^2=0,738$ va $F=33,809$ ($p<0,001$) natijalari tanlangan moliyalashtirish yo'nalishlarining umumiy KO'B kreditlash dinamikasini sezilarli darajada izohlashini tasdiqladi. “Ekspress”, “Biznes ipoteka” va “Light Green” mahsulotlari bo'yicha keltirilgan amaliy natijalar segmentlangan kredit mahsulotlari bank daromadlilik va tadbirkorlar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini bir vaqtda kengaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Birinchidan, kichik biznes kreditlarini aylanma mablag', investitsiya, ko'chmas mulk, yashil loyiha va tezkor likvidlik ehtiyojlari bo'yicha segmentlash zarur. Ikkinchidan, garovi yetarli bo'lmagan, ammo barqaror pul oqimi yoki yuqori texnologik salohiyatga ega loyihalar uchun differensial kafolat tizimini rivojlantirish lozim. Uchinchidan, mikrokreditlar, xizmat ko'rsatish va ayollar tadbirkorligi segmentlarida raqamli skoring va tezkor kredit jarayonlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, kredit ajratish bilan birga biznes-reja, moliyaviy boshqaruv va postkredit monitoringni qamrab oluvchi konsalting xizmatlarini bank mahsulotiga integratsiya qilish zarur. Beshinchidan, kredit portfelining samaradorligini faqat ajratilgan mablag' hajmi bilan emas, qaytuvchanlik, yaratilgan pul oqimi, bandlik va mijozning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari orqali baholash taklif etiladi.

8 Manba: xorijiy tajriba va “O'zmilliybank” AJ amaliy natijalarini umumlashtirish asosida muallif taklifi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beck T. Bank Financing for SMEs - Lessons from the Literature // National Institute Economic Review. - 2013. - Vol. 225, No. 1. - P. 23–38.
2. De la Torre A., Martínez Pería M.S., Schmukler S.L. Bank Involvement with SMEs: Beyond Relationship Lending // Journal of Banking & Finance. - 2010. - Vol. 34, No. 9. - P. 2280–2293.
3. Yamori N. Japanese SMEs and the Credit Guarantee System after the Global Financial Crisis // Cogent Economics & Finance. - 2015. - Vol. 3, Issue 1.
4. Abor J., Biekpe N. Small Business Reliance on Bank Financing in Ghana // Emerging Markets Finance and Trade. - 2007. - Vol. 43, No. 4. - P. 93–102.
5. Ayyagari M., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Small vs. Young Firms across the World: Contribution to Employment, Job Creation and Growth. - World Bank Policy Research Working Paper 5631, 2011.
6. Stein P., Goland T., Schiff R. Two Trillion and Counting: Assessing the Credit Gap for Micro, Small and Medium-size Enterprises in the Developing World. - Washington, DC: World Bank, 2010.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulletenlar va kichik hamda o'rta tadbirkorlikni kreditlash bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. - <https://cbu.uz/uz/statistics/>
8. "O'zmilliybank" AJ. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun kredit mahsulotlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. - <https://nbu.uz/>
9. Korea Credit Guarantee Fund (KODIT). Credit Guarantee and Start-up Support Programs. - <https://www.kodit.co.kr/>
10. KfW. ERP-Förderkredit KMU: kichik va o'rta korxonalar uchun investitsiya va aylanma mablag'larni moliyalashtirish dasturi. - <https://www.kfw.de/>
11. European Investment Fund (EIF). InvestEU Guarantee Products: SME debt financing and risk-sharing instruments. - <https://www.eif.org/flagship-initiatives/investeu/guarantees>
12. Qredits Microfinanciering Nederland. Credit, training and coaching support for entrepreneurs. - <https://www.qredits.nl/>
13. International Finance Corporation (IFC). MSME Finance: access to finance and financial inclusion materials. - <https://www.ifc.org/>
14. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: improving SMEs' access to finance and finding innovative solutions. - <https://www.worldbank.org/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>